

## MILLIY RUHNING OBRAZLAR VOSITASIDA NAMOYON BO'LISHI

Nilufar G'ofurova

Farg'ona davlat texnika universiteti o'qituvchisi,

masturaxonboratova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20541471>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'zbek she'riyatida milliy ruhning badiiy obrazlar vositasida namoyon bo'lishi tahlil qilinadi. Badiiy obrazning adabiyotdagi o'rni, uning milliy tafakkur va ruhiyatni ifodalashdagi ahamiyati ilmiy-nazariy manbalar asosida yoritilgan. Shoirlarning she'riy asarlarida milliy xarakter, o'zbekona qadriyatlar va istiqloq g'oyalarning obrazli ifodasi tahlil etilib, ularning o'zbek adabiyotidagi o'rni baholangan.

**Kalit so'zlar:** milliy ruh, badiiy obraz, Vatan obrazi, xalq obrazi, she'riyat, milliy tafakkur, milliy xarakter.

“Badiiy obraz – adabiyotning asosi. Obrazli tafakkur bo'lmagan joyda adabiyot ham bo'lmaydi. Badiiy obrazdan ayri holda adabiyot ham, uning eng faol shakli sanalgan she'riyat ham mavjud bo'la olmaydi. Zero, obraz – badiiy adabiyotning mavjudlik sharti, obrazli tafakkur esa, ijod jarayonining asosiy omilidir. Milliy ruh ifodasida badiiy obrazning tutgan o'rni, ayniqsa, alohida”<sup>1</sup>. “Adabiyotshunoslik lug'ati”da keltirilishicha: “Avvalo, badiiy obraz – individuallashtirilgan umumlashma sifatida namoyon bo'ladi. Voqelikdagi har bir narsa-hodisada turga xos umumiy xususiyatlar bilan uning o'zigagina xos xususiyatlar mujassamdir. Narsa-hodisaning umumiy xususiyatlariga tayanuvchi abstrakt tafakkurdan farqli o'laroq, obrazli tafakkur uning individual xususiyatlariga tayangan holda fikrlaydi”<sup>2</sup>.

Adabiyotda milliy ruh turli obrazlar yordamida ham ifodalanadi. Masalan, eng ko'p uchraydigan holat uning vatan, xalq, ona obrazlarida voqealanishidir. Haqiqiy ijodkor, odatda, chinakam vatanparvar va millatparvar bo'ladi.

Adabiyotdagi eng boqiy mavzulardan biri vatandir. Adabiyotshunos olim U.Hamdami aynan shu haqida quyidagicha fikrlarni bildirgan: “Cho'lpon yuragi o'rtanib va yuraklarni o'rtatib kuylagan, Oybek va Hamid Olimjonda yuksak pafos bilan tarannum etilgan vatan mavzusidagi she'rlar zanjirini olaylik. Axir Abdulla Oripovning “O'zbekiston” yoki Erkin Vohidovning “O'zbekim” singari o'zligimiz, yurtimiz haqidagi yuksak taronalar aynan yuqoridagi an'analarning davomi sifatida dunyoga kelgan. Chunki she'riyatda “vatan” mavzusi o'z-o'zidan bino bo'lgan emas, balki badiiy tafakkur tarzida sodir bo'lgan muayyan harakat-o'zgarishning mahsuli bo'lib tug'ilgan. Insonning o'zi yashab turgan makonni vatan darajasida anglash uchun ham u ana shunday ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni boshidan kechirgan bo'lishi zarur”<sup>3</sup>.

Abdulla Oripov tomonidan yozilgan “O'zbekiston” qasidasi – o'zbek she'riyati tarixida vatanimizni yuksak milliy ruh bilan vasf etilgan shoh asar. Qasida ona O'zbekistonning shavkatli, shuning barobarida, murakkab va ziddiyatli voqealarga boy o'tmishi, xalqimiz tarixining nurli va zulmatli kezlari, davlatchiligimiz taraqqiyotida alohida o'rin tutgan buyuk tarixiy siymolar ibrati, millatimizning jahon ilm-fani, adabiyoti va madaniyati rivojiga qo'shgan beqiyos hissasi kabi masalalar mukammal yuksak badiiy talqin etilgani jihatidan alohida ajralib turadi. Qasidada vatan qismati haqida so'z ketar ekan, xalq obrazi badiiy tasvir markazida turadi:

<sup>1</sup> Ўсарова Л. Абдулла Орипов шеъриятида миллий рух ифодаси: филология фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) диссертацияси. – Тошкент, 2020. – Б. 20.

<sup>2</sup> Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б.43

<sup>3</sup> Ҳамдамов У. Бадий тафаккур тадрижи. Тошкент: Янги аср авлоди, 2002. – Б. 62.

Bobolardan so‘zladim, ammo  
Bir zot borkim, baridan suyuk:  
Buyuklarga baxsh etgan daho,  
Ona xalqim, o‘zingsan buyuk.  
Sen o‘zingsan, eng so‘nggi nonin  
O‘zi yemay o‘g‘liga tutgan.  
Sen o‘zingsan, farzandlar shonin  
Asrlardan opichlab o‘tgan.  
Ona xalqim, jon-tanim manim,  
O‘zbekiston, Vatanim manim.

Abdulla Oripov milliy ruhni ifodalash borasida tengsiz ijodkor. Shoir asarlari tili ijodkorning har bir so‘z, har bir jumla ustida zahmat chekishidan, so‘zning ma‘no qirralarini nozik his etishidan, badiiy matnda san‘atkorona qo‘llay olishidan darak beradi. Shuning uchun shoirning har bir she‘ri o‘quvchi qalbidan chuqur joy oladi. Shoirning “Xalqim” she‘rida shoir ona xalqining sha‘ni, qismati uning uchun or-nomus masalasi ekaniga urg‘u beradi. Uning mudom ezgulikka yor, o‘zbekday qaddini kerib, norlar ichida nor bo‘lmog‘ini orzu qiladi:

Men uchun or eding, or bo‘lgin xalqim,  
Mudom ezgulikka yor bo‘lgin xalqim.  
O‘zbeksan, o‘zbekday qaddingni kergil,  
Norlar orasida nor bo‘lgin xalqim.

Mazkur she‘r o‘zbek tafakkur tarzini beqiyos suvratlantirgan:

Agar bola bo‘lsang bag‘rimga bosib,  
Yelkamga ko‘tarib yurarman xalqim.  
Agar ota bo‘lsang, senga munosib,  
Tayanch, aso bo‘lib turarman xalqim.

Bolasini bag‘riga bosib, yelkasida ko‘tarish ham, otasiga tayanch bo‘lish ham o‘zbek xalqiga xos xususiyatlar. Shoir o‘zbek milliy xarakterining asosiy xususiyatlarini mohir rassom kabi o‘quvchi ko‘z o‘ngida obrazli gavdalandiradi. She‘rning mana bu satrlari shoir qalbidagi ona elga sadoqat tuyg‘usi nechog‘liq baland bo‘lgani isbotidir:

Umr-ku o‘tajak, fano muqarrar,  
U yoqdan hech kimga kelmagan xabar.  
Mabodo, jannatga bo‘lsam muyassar,  
Shunda ham xayoling surarman, xalqim.

Bu she‘r Abdulla Oripovning chinakam xalqparvar shoir ekanining dalilidir. Ona yurtga, jonajon xalqiga bo‘lgan muhabbatini yuksak badiiyat namunasi hisoblangan asarlarida chin ixlos bilan vasf etdi.

Erkin Vohidov ham vatanini juda go‘zal satrlarda tarannum etdi. “Erkin Vohidov she‘riyatida vatanparvarlik, insonparvarlik, yuksak axloqiylik va mumtoz ma‘nodagi adab muhitini yaratadilar, shu ma‘noda, uslub hosil qiluvchi unsurlar kabi she‘r mundariyasi ichida harakat

qiladilar”<sup>4</sup>. Bu mavzu shoir she’riyatida mukammal mavzu darajasiga ko’tariladi, obrazning o’ziga xos elementlarini ifodalaydi. “Erkin Vohidov she’riyatidagi “O’zbekim” qasidasi Millat va Vatan qiyofasi ortiqcha bo’yab-chaplashlarsiz, alqovlarsiz, nihoyatda samimiy badiiy til vositasida tasvirlagan. Erkin Vohidov tomonidan balandparvozlikdan holi turli shakl va turli mavzularda bitilgan she’rlarda o’zbek nomining mangulik sahifalariga muhrlanganini kuzatish mumkin”<sup>5</sup>. “O’zbekiston bog’lariga qaytib keldi bulbullar” she’ri yaqin yillarda yozilgan bo’lib, unda istiqloq kuylanadi. Mazkur she’rda bulbul – istiqloq, ezgulik, go’zallikdir:

Mana bu kun bog’larimga qaytib keldi bulbullar,  
Hur Vatanga hur qo’shiq aytib keldi bulbullar.

Vatanni anglash – Shavkat Rahmon she’rlaridagi bosh mavzu. Otamakanni anglash haqida yozilgan she’rida uni juda kech taniganidan yozg’iradi. Vatanni sochi oqarganda anglaganidan shoir qattiq iztirobga tushadi:

Hali biror ishni uddalamadim,  
hali hech kimsani qilmadim rozi,  
behuda o’tibdi go’zal umrimning  
qanchalab chiroyli bahori, yozi  
Farog’at borligin unutib qo’ydim  
Bag’rimga chaqinlar tegdi daf’atan  
Sendan-da ulug’roq narsa yo’qligin  
Sochim oqarganda angladim, Vatan

Shu o’rinda Shavkat Rahmon haqida Ibrohim Haqqulning quyidagi fikrlari o’rinlidir: **“Vatanini topgan yoki uni anglashga intilayotgan, yuragida Vatani yashaydigan shoirlar bor. Bular, shubhasiz, she’riyatni qismat bilgan, qalb va vijdon amri bilangina qalam tebratadigan, dunyoda kechayotgan voqea-hodisalarga, u yo bu darajada mas’ul, iste’dodlardir. Shavkat Rahmon ana shunday shoirlardan”**<sup>6</sup>. Shoir shuningdek vatanni yurakning eng chuqur tublariga joylab sevadi:

Joylashgansan shunchalar chuqur...  
O’z tubiga yashirgan yurak.  
Senga yetib bormaklik uchun  
Uzun umrim yetmasa kerak.

Shavkat Rahmon ijodini o’rgangan Ulug’bek Hamdam fikricha: “70-yillar avlodi o’zining ijtimoiy-ma’naviy mavqeyi bilan XX asr o’zbek she’riyatida alohida e’tiborga molikdir. Shavkat Rahmon ana shu iste’dodli avlodning bitta zabardast vakiligina emas, balki butun boshli o’zbek

<sup>4</sup> Faфуров И. Юлдуз шуъласи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2022. – Б.108.

<sup>5</sup> Yo’ldosheva H. Erkin Vohidov she’riyatida milliy ruhning poetik ifodasi: filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2023. – B. 56.

<sup>6</sup> Haqqul I. Qismat tuyg’usi – Vatanni tanish. // <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/ibrohim-haqqul-shavkat-rahmon.html>.

she'riyati osmonining doimiy o'chmas yulduzlaridan biri o'laroq porlab turishga muvaffaq bo'lgan shoirlarimizdandir”<sup>7</sup>.

Shavkat Rahmon ijodi avj pallasiga chiqqan paytda Vatan mustamlakachilar qo'li ostida azoblanayotgan edi. Vatani xur, ozod ko'rish uning ijodi bosh g'oyasiga aylandi, boshqa mavzular uning uchun o'z ahamiyatini yo'qota bordi. Shavkat Rahmon she'riyati oldida Vatanni sevishini bayroq qilib ko'rsatadigan, “Vatan” so'zini bosh harflar bilan yozib, sun'iy pafos bilan yo'g'rilgan yolg'on qasamlar ichadigan ayrim ijodkorlarning ma'naviy qiyofasi ochiq-oydin oshkor bo'ladi. Uning quyidagi she'ridan ham qanchalik vatanparvar ekanligini bilishimiz mumkin bo'ladi:

Men jangchi emasdim,  
Men shoir edim.  
nihoyat, shoirdan ko'ra zobitman,  
har nafas musulmon millatim dedim,  
nafsig a kuyganlar keldi oqibat.

Haromni hush ko'rgan maslakfuruslar  
zig'irday himmatni qilganda minnat,  
yaproqday sarg'ardim buyuk urushda  
Musulmon yo'q edi,  
yo'q edi millat.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Куронов Д. Мамажонов З. Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б. 341.
2. Жўрақулов У. Ҳудудсиз жилва. – Тошкент: Фан, 2006.
3. Йўлдош Қ. Йўлдош М. Бадиий таҳлил асослари. – Тошкент: Камалак, 2016. – 462 б.
4. Адабиёт назарияси. Икки жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Фан, 1978. – 416 б.

<sup>7</sup> Ҳамдамов У. Бадиий тафаккур тадрижи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2002. – Б. 55.